



## O'RTA ASRLAR MO'JIZASI

**O'rinboyeva Nilufar**

*TDPU 2-kurs talabasi*

**Omonova Mubora**

*Ilmiy rahbar: TDPU dotsent v.b., f.f.f.d., PhD*

**Annotatsiya :** *Ushbu maqolada Amir Temurning faoliyati, davlatchilik asoslari haqida so'z yuritilib, ba'zi o'rinlarda uning "Temur tuzuklari" asariga murojaat qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *Amir Temur, Temur tuzuklari, olimlar, din, islom, musulmonlar, G'arbiy Yevropa, Boyazid, Ibn Arabshoh, Yevropa olimlari.*

*O'z qudratimizni saqlash uchun men bir qo'limda adolat shamini va ikkinchi qo'limda beg'arazlik shamini tutib har ikki sham bilan butun umr bo'yi o'z yo'limni yoritib yurdim. Barcha ishlarimda adolat qoidalariga rioya qildim. (Amir Temur)*

Buyuk tarix zarvaraqlariga nazar solsak, uning naqadar uzoq o'tmishga borib taqalishini ko'rishimiz mumkin. O'rta asrlar tarixida sohibqiron Amir Temur o'zining tengsiz salohiyati va adolatpeshaligi bilan o'chmas iz qoldirgan shaxslardan biri hisoblanadi. Amir Temur tengsiz shijoati, mohir qo'mondonligi va adolatli davlat boshqaruvchisi sifatida hali-hanuzgacha mardlik va donishmandlik ramzi bo'lib kelmoqda.

Sohibqiron Amir Temur faoliyati davomida Xuroson, Movorounnahr va Xorazmni o'z ichiga olgan juda katta markazlashgan davlat tuzdi. Saltanatda tinchlik va osoyishtalikni o'rnatish, bu hududlarni kengaytirish va mustahkamlash maqsadida urushlar olib borgan. O'z davlatini boshqarish davomida madaniyat, ma'rifat va dinga ham alohida e'tibor qaratgan.

Amir Temur mamlakatni adolat bilan boshqargan. "Kuch- adolatda" ("Rosti rusti" bu so'z "Haqgo'y bo'lsang, najot topasan" deb ham tarjima qilinadi.) shoriga amal qilib, feodal tarqoqlikka, tinimsiz davom etayotgan urush-janjallarga barham berdi. Nafaqat Sharq mamlakatlari, balki G'arb davlatlarida ham tinchlik va osoyishtalikni o'rnatdi.

Darhaqiqat, Amir Temur buyuk sarkardalik sirlari, harbiy saboqlari haqida o'zining "Temur tuzuklari" asarini yozib qoldirdi. Garchi asar Temuriy shahzodalarga bag'ishlab yozilgan bo'lsa-da, bu tuzuklardagi o'gitlardan davlat tutish sirlari, siyosiy masalalar va boshqa sohalarda ham hanuzgacha foydalanilib kelinmoqda. Asarda Amir Temur davlat ishlarini boshqarishda odillik, adolat va haqiqatning ustuvorligini ta'minlash uchun kurshgani, oddiy xalq manfaatlarini himoya qilish, jabrdiydalarga madadkor bo'lib, ig'vogar va tuhmatchilarga ishonmaslikka amal qilganligini aytib o'tadi. Gunohkorga ham, begunohga ham



rahm qilib, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqaradi... Fuqaro va qo'l ostidagilarga rahmdillik qiladi, sipohlarga in'om ulashganini ta'kidlaydi.

Bu so'zlar, albatta, hozirgi va kelasi zamon avlodlar uchun dasturilamal bo'lib xizmat qilishi kerak. Chunki Amir Temur nafaqat harbiy sohaga, shu bilan birga ma'naviy va ma'rifiy masalalarga ham e'tibor qaratgan. O'zi qo'llagan harbiy hiylalar va tadbirlarni bo'lajak avlodlar uchun yozib qoldirgan. Yaqin o'tmishgacha Amir Temurga bosqinchi, qirg'inbarot urushlarga sabab bo'lgan podshoh sifatida qaralardi. Ammo mustaqillik yillarida uning nomi oqlanib, istiqlol faxri, g'ururi sifatida talqin qilina boshlandi. Fikrimiz isboti sifatida Amir Temurning "Tuzuklari" da aytib o'tilgan quyidagi jumlaning keltiramiz: "... men hech qachon birovning mulkiga ega bo'lishga intilmadim va shuningdek, hech qachon ko'proq boylik orttirishga ham harakat qilmadim. Hech qachon birovga hasad ko'zi bilan qaramadim. Bu borada Amir Husayn bilan bo'lgan voqea menga ibratli bo'ldi: o'z fuqarolarining mol-mulkiga nisbatan ochko'zligi uni halokatga olib keldi".

Pirovardida Amir Temur aslo dushman izlash yo'lidan bormaganligi va ularni do'st qilishga intilganini ko'p bora ta'kidlab o'tadi. Shuning uchun ham sohibqiron hayotini o'rgangan, tadqiq etgan tarixchi olimlar Amir Temurning jiddiy dushmanlari ko'p bo'lmaganligi, qo'l ostida xizmat qilayotgan hokim, mansabdor shaxslar o'rtasida ham adovat yo'qligi, ichki ixtiloflar bo'lmaganligi haqida aytib o'tadilar. Xuddi shunday sohibqiron o'zi ham aytganidek: "...Amir Husayn menga asir tushgandan keyin uning navkarlari va amirlari: "Endi bizni o'ldiradi"- deb gumon qilgan edilar. Garchand avvaliga niyatim ularni o'ldirish bo'lgan bo'lsa ham, keyinroq "Axir ular askarlar-ku?"- deb ularni avf etdim va yana askarlik ishlariga tayinladim". Bu voqea orqali Amir Temur shafqatli va odil, insonlar taqdirini o'ylaydigan podshoh ekanligini bilib olishimiz mumkin.

"Amir Temur tarixi" asari muallifi Ibn Arabshoh o'z asarida sohibqiron haqida muhim ma'lumotlar keltirib o'tadi: "Temur olimlarga mehribon bo'lib, sayyid-u shariflarni o'ziga yaqin tutardi. Ulamolalar va fozillarga to'la-to'kis izzat ko'rsatib, ularni har qanday kimsadan batamom muqaddam ko'rardi... Ularga nisbatan o'z muruvvati bisotini yoyardiki, bu muruvvati uning haybati bilan aralash edi..."

Sohibqiron butun umri davomida dinga qattiq e'tiqod qildi, o'zini Allohning yerda mulkining posboni deb bilib, Tangrining irodasisiz uning bandalariga zarar yetkazmaydi. Har doim Alloh amri va uning payg'ambarining hadislarini to'la ado etishga intilaqdi. Islom bayrog'ini baland ko'tarib, imon bilan qudrat bir onadan tug'ilgan deb aytib o'tadi.

"Temur tuzuklari" dagi "Yana tajribamda ko'rib bildimki, davlat agar din-u tartib asosida qurilmas ekan, to'ra-tuzukka bog'lanmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tartibi yo'qoladi. Bunday saltanat yalang'och odamga o'xshaydirkim, uni ko'rgan kimsa nigohini olib qochadi"- deb ta'kidlab o'tadi.



Musulmonlarga ta'lim berish uchun har bir shaharga olim va mudarrislar tayin qildiradi.

Bundan tashqari Amir Temur yirik siyosatchi va davlat arbobi sifatida davlat tuzilishi, amaldor kishilarning huquq va majburiyatlarini belgilab beradi. U davlatni idora qilishda vazirlar, amirlar va viloyat hokimlariga alohida o'rin beradi. Vazirlar Amir Temur fikricha quyidagi 4 sifatga ega bo'lishi kerak:

1. Asllik, toza nasllik va buyuklik
2. Aql va farosatlilik
3. Lashkar va fuqaro ahvolidan xabardor bo'lish
4. Sabr-bardoshli va adolatli bo'lish

Amir Temur mana shu qoidalar orqali amir va mulozimlar, viloyat hokimlari o'rtasidagi ichki nizo va boshboshdoqliklarga yo'l qo'ymagan. Xizmatlari evaziga ularni munosib tuhfa bilan taqdirlaydi.

Sohibqiron davlatida elchilik va diplomatik munosabatlar juda katta ahamiyatga ega edi. Ispaniyalik elchi Klavixo o'zining "Kundaliklar" nomli esdaliklarida Amir Temur davlatining Xitoy, Hindiston, Oltin O'rda, Mo'g'uliston va boshqa davlatlar bilan olib borgan elchilik aloqalari, Sohibqiron qo'l ostidagi mamlakatlar va shaharlar, xalqning turmush tarzi, binolar, madrasa va xonaqohlar qurilishi, saroyda amalda bo'lgan tartib qoidalar haqida yozib qoldirgan. Shu o'rinda bitta narsani alohida ta'kidlab o'tish joizki, Yevropa davlatlarining XV asr va undan oldin ham Amir Temur davlati bilan elchilik aloqalarini o'rnatgani bejiz emas edi. Chunki bu paytda Amir Temur davlati va Oltin O'rda xonligi bilan bir qatorda Usmonli turk sultonligi ham juda katta qudratga ega bo'lib, Yevropada keng hududlarni egallagan Ispaniya, Fransiya, Germaniya va boshqa davlatlarga xavf solmoqda edi. Shunday sharoitda Amir Temur Sulton Boyazid qo'shinini Anqara jangida yengib, "Yevropa xaloskori"ga aylangan edi. Ana shu voqeadan keyin G'arb davlatlari hukmdorlari Amir Temur saltanati bilan elchilik aloqalarini yanada mustahkamlaganlar. Uning davlati va qudrati haqida ko'plab davlatlar elchilari o'z esdaliklarida yozib qoldirganlar.

Amir Temur haqida qimmatli yirik asarlar yaratilgan bo'lib, ular orasida "Tuzukoti Temuriy" alohida ahamiyatga egadir. Mir Abu Tolib Husayniy va Muhammad Afzal Buxoriy mehnatkari tufayli asar fors tilidan bizgacha yetib kelgan. Uning nusxalarini Rossiya, O'rta Osiyo, Hindiston, Eron, Turkiya, Misr, Angliya va boshqa davlatlar kutubxonalaridan toppish mumkin. Asar 1857-yil Xivada Muhammad Yusuf Rojij tomonidan o'zbek tiliga qisqartirib tarjima qilingan. "Tuzukoti Temuriy" Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiylarning "Zafarnoma" laridagi ma'lumotlarni qiyoslash orqali asarning Amir Temur tomonidan yozilganligi aytiladi. "Tuzukot"da Amir Temur va Temuriylar davrini o'rganishga doir muhim ma'lumotlar keltirilgan. Unda Chig'atoy ulusi yerlarining



1342-1405 yillardagi tarixi davlat va qo'shinlari tuzilishi, mamlakatning qo'shni davlatlar bilan aloqalari o'z ifodasini topgan qimmatli asardir.

Xulosa sifatida shuni alohida aytish mumkinki, Amir Temur o'z davrining mohir siyosatchisi, Sharqda ulkan bir davlat barpo etib, shuhrat cho'qqisiga yetkazgan qudratli hukmdordir. Yuqorida "Temur tuzuklari" asaridan keltirilgan namunalar Amir Temurning ma'naviy qiyofasini ko'z o'ngimizda gavdalantira oladi. Uning naqadar buyuk ba takrorlanmas shaxs ekanligini ko'rsatib beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Temur Tuzuklari. – Toshkent: O'zbekiston, 2014.
2. Ahmedov B. Amir Temurni yod etib. – Toshkent: O'zbekiston, 1996.
3. Ahmedov B., U. Uvatova, G. Karimov va boshq. Amir Temur va Ulug'bek zamondoshlari xotirasida (risola). – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
4. Ibrohimov H. Sohibqironni anglash (esse). – Toshkent: 2014.
5. Brion M. Amir Temur. – Toshkent: "Nurafson business" nashriyoti, 2020.